

AQSHDA XALQARO XAVFSIZLIKNING HARBIY JIHATLARI**Baxtiyorov Burhon Muzaffar o'g'li***Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*Tel: +998995482323, burxonbaxtiyorov2323@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola AQShning xalqaro xavfsizlikdagi harbiy yondashuvlarini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor strategik, operativ va taktika darajasidagi chora-tadbirlarga qaratilgan. Strategik darajada AQSh milliy xavfsizlik va global barqarorlikni ta'minlash maqsadida deterrent siyosati, oldini olish yondashuvi va strategik alyanslarda faol ishtirok kabi asosiy yo'nalishlardan foydalanadi. Operativ darajada esa global harbiy bazalar, Qurolli Kuchlarning tezkor javob berish qobiliyati va ilg'or texnologiyalar orqali xavfsizlikni mustahkamlash ko'zda tutilgan. Maqola AQShning harbiy strategiyasi orqali xalqaro maydondagi xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini chuqur o'rganadi.

Kalit so'zlar: NATO, kiberxavfsizlik, yadro ambisiyasi, AUKUS**ANNOTATION**

This article analyzes the US military approach to international security. The main focus is on measures at the strategic, operational and tactical levels. At the strategic level, the US uses the main directions such as deterrence policy, prevention approach and active participation in strategic alliances to ensure national security and global stability. At the operational level, it is envisaged to strengthen security through global military bases, the rapid response capability of the Armed Forces and advanced technologies. The article deeply studies the mechanisms for ensuring security in the international arena through US military strategy.

Keywords: NATO, cybersecurity, nuclear ambition, AUKUS**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется военный подход США к международной безопасности. Основное внимание уделяется мерам на стратегическом, оперативном и тактическом уровнях. На стратегическом уровне США используют такие основные направления, как политика сдерживания, превентивный подход и активное участие в стратегических альянсах для обеспечения национальной безопасности и глобальной стабильности. На оперативном уровне предполагается укрепление безопасности за счет глобальных военных баз, возможностей быстрого реагирования Вооруженных сил и передовых технологий. В статье подробно изучаются механизмы обеспечения безопасности на международной арене посредством военной стратегии США.

Ключевые слова: НАТО, кибербезопасность, ядерные амбиции, АУКУС

KIRISH

Xalqaro xavfsizlik zamonaviy global siyosatning eng muhim ustunlaridan biridir. Davlatlar o'z hududiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, global va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga intiladilar. Shu nuqtai nazardan, AQSh dunyo siyosiy maydonida yetakchi harbiy kuch sifatida xalqaro xavfsizlikni shakllantirishda va saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Mamlakatning harbiy salohiyati nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlaydi, balki xalqaro nizolarni oldini olish, strategik ittifoqlarni qo'llab-quvvatlash va global tahdidlarga javob berish imkoniyatini ham beradi.

NATO doirasidagi strategik hamkorliklar, Yaqin Sharq, Yevropa va Osiyo–Tinch okeani hududlarida joylashgan harbiy bazalar, xalqaro harbiy mashg'ulotlar va tinchlikni qo'llab-quvvatlash missiyalari bu rolni yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda yuzaga kelgan kiberxavfsizlik tahdidlari, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqarilayotgan yangi qurol tizimlari, geosiyosiy raqobatning keskinlashuvi va mintaqaviy qurollanish jarayonlari AQShning harbiy strategiyasini yangicha yondashuv asosida qayta shakllantirishni talab qilmoqda.

ASOSIY QISM

Amerika global kuch bo'lib, global manfaatlarga ega, va uning armiyasi mamlakatni hujumlardan himoya qilish va o'zining milliy manfaatlarini tegishli global miqyosda himoya qilish vazifasini o'taydi¹⁴.

AQSh qurolli kuchlari Prezidenti boshchiligidagi strategik qarorlar asosida faoliyat yuritadi. Pentagon tomonidan har yili yangilanib boriladigan "National Defense Strategy" hujjati davlatning harbiy ustuvorliklarini belgilab beradi. So'nggi strategiya hujjatlarida Xitoyning harbiy va texnologik yuksalishi AQShning birinchi darajali strategik raqibi sifatida belgilangan bo'lsa, Rossiya "o'rta muddatli xavf" sifatida tasniflangan¹⁵. Bundan ko'rinib turibdiki, AQSh o'z resurslarini ko'proq Osiyo–Tinch okeani mintaqasiga yo'naltirishi kerak. AQShning global miqyosidagi ustunlik jihatidan biri bu uning turli davlatlarda harbiy bazalarga ega ekanligidir, hozirda uning 750 ta bazasi mavjud.

So'nggi yillarda xalqaro xavfsizlik borasida ko'plab o'zgarishlar yuz bermoqda. Yangi tahdidlarning paydo bo'lishi AQShni harbiy siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Xitoyning harbiy byudjeti 2023-yilda 224 milliard dollarga yetib yana o'sishda davom etmoqda. Uning dengiz-floti AQSh kuchlaridan ham katta bo'lganligi sababli, Tinch okeani havzasidagi kuchlar muvozanati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, AQSh Koreya, Yaponiya kabi davlatlar bilan harbiy

¹⁴ An Assessment of U.S. Military Power Url: <https://www.heritage.org>.

¹⁵ U.S. Department of Defense — National Defense Strategy (2022) Url: <https://www.defense.gov/National-Defense-Strategy>

hamkorlikni kuchaytirish choralari ko'rmogda. Hozirgi kunda ham Xitoyning armiyasi 2 million AQShning armiyasi esa 1,32 millionni tashkil qiladi.

2022-yildan keyin Yevropadagi xavfsizlik sharoiti keskin o'zgardi. Rossiyaning Ukraina hududiga bostirib kirishi AQShning NATO doirasidagi majburiyatlarini yanada kuchaytirgan bo'lsa, Yevropadagi harbiy mavjudlikni qayta tiklashni talab qildi¹⁶. Ushbu bosqin AQShni Yevropadagi harbiy-strategik pozitsiyasini qayta tiklashga majbur qildi. Yevropa xavfsizligining asosiy kafolatchisi bo'lgan AQSh oxirgi o' n yilliklarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bilan band bo' lib qolgan edi. Rossiyaning agressiyasi tufayli, AQSh NATOga qayta e'tibor bera boshladi.

AQShning Yaqin Sharqdagi siyosatidan ko'zlangan asosiy maqsad bu uning gegemon davlat sifatidagi maqomini saqlab qolishdir. AQShning Isroil, Saudiya Arabistoni va Qatar bilan strategik hamkorligi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, AQSh Eronning yadro ambisiyalarini cheklash bo'yicha diplomatik va harbiy choralarni davom ettirmogda¹⁷. AQShning Yaqin Sharqdagi siyosati asosan Eronni cheklashdan tashqari, Xitoy va Rossiya ta'sirini kamaytirish hamda Arab- Isroil yaqinlashuvini rag'batlantirishni maqsad qiladi.

Bundan tashqari, AQShning Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Filippin bilan ittifoqlari Xitoyga qarshi mintaqaviy muvozanatni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. AUKUS doirasidagi yangi harbiy hamkorlik aynan shu maqsadga qaratilgan¹⁸.

XULOSA

AQShning xalqaro xavfsizlikdagi harbiy o'mi global tartibni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega. Uning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kuchlar muvozanatini saqlab turishdagi ahamiyati juda katta. AQSh o'zining harbiy kuchi, strategik ittifoqlari orqali global barqarorlikni ta'minlashga harakat qilmogda. NATOdagi hamkorlik, AUKUS kabi ittifoqlar tuzilishi, Yaponiya va Koreya bilan hamkorlik AQShning xalqaro xavfsizlikdagi pozitsiyasini mustahkamlamoqda.

AQShning xavfsizlik doirasida yangi texnologiyalardan foydalanishi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kuchlar muvozanatini saqlab turishi, Yaqin Sharq davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi xalqaro xavfsizlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁶ NATO — Strategic Concept 2022 Url:<https://www.nato.int/strategic-concept>

¹⁷ U.S. Department of State — Middle East Strategic Framework Url:<https://www.state.gov>

¹⁸ CSIS — U.S. Indo-Pacific Strategy Analysis Url:<https://www.csis.org>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. An Assessment of U.S. Military Power Url: <https://www.heritage.org>.
2. U.S. Department of Defense — National Defense Strategy (2022)
[Url:https://www.defense.gov/National-Defense-Strategy](https://www.defense.gov/National-Defense-Strategy)
3. NATO — Strategic Concept 2022 Url:<https://www.nato.int/strategic-concept>
4. U.S. Department of State — Middle East Strategic Framework
Url:<https://www.state.gov>
5. CSIS — U.S. Indo-Pacific Strategy Analysis Url:<https://www.csis.org>